

29-Mavzu: Aholining mehanik harakatini miqdoriy va sifatiy baholash

Reja:

- 1. Aholining mehanik harakati (migratsiya) turlari**
- 2. Aholi mehanik harakatini hisobga olish usullari**
- 3. Mehnat migratsiyasi**

Aholining mehanik harakati yoki bir joydan ikkinchi joyga ko'chib o'tishi quyidagi turlarga bo'linadi:

Doimiy (umrbod) migratsiya - doimiy yashash joyini butunlay almashtirish bilan bog'liq: boshqa mamlakatga yoki qishloqdan shaharga va h.k.

Vaqtinchalik migratsiya yetarlicha uzoq muddatga, lekin cheklangan, ko'pincha oldindan belgilangan muddatga ko'chishini bildiradi. Masalan, ko'pchilik ishchilarning kam sonli aholi yashaydigan hududlarga shartnoma bo'yicha bir necha yil ishlash uchun ko'chishi vaqtinchalik migratsiya hisoblanadi.

Majburiy migratsiya migratsiyaning zamonaviy ko'rinislilaridan biri bo'lib, u siyosiy sabablarning natijasi hisoblanadi. Masalan, sobiq ittifoqda aholini ommaviy deportatsiya qilish majburiy migratsiyaning shakllaridan biri hisoblangan. U bir necha yo'nalishlarda amalga oshirilgan. Quloqlar deb nomlanuvchi odamlarga nisbatan bir qator deportatsiyalar qo'llanilgan. Ular 1930-yillarning boshida kollektivlashtirish va quloqlarni yo'qotish shiori ostida amalga oshirilgan. Ushbu rejalar bo'yicha Ukrainadagi quloqlar - Shimoliy va markaziy Qoratuproq hududlariga, Quyi va O'rta Volga bo'ylari va Belorussiyadan — Sibirga, Shimoliy Kavkazdan Ural va Qozog'istonga ko'chirilgan. G'arbiy hududlar aholisi Sharqiy Sibir va Uzoq Sharqqa ko'chirilgan. Umuman olganda, ushbu ko'chirishlarda quyidagi tendentsiyalar kuzatilgan:

- birinchidan, ularni vatanlaridan iloji boricha uzoqroqqa ko'chirib o'tishga intilish;
- ikkinchidan, umuman boshqa tabiiy iqlim sharoitlariga jo'natish. 1931 - yildagi quloqlarni surgun qilish geografiyasida shimoliy va uzoq hududlarni

o'zlashtirish rejalaridan hududlarni iqtisodiy rivojlantirishning mahalliy va amaliy vazifalarini echishga o'tish kuzatildi.

Sovet deportatsiyalarining yana bir turi — «chegaralarni tozalash» hisoblanadi. 1930 va 1934-1935 yillardan boshlab chegara hududlarda yashovchi odamlar o'z vatanlaridan ko'chirila boshladi: g'arbdan finlar, nemislar, polyaklar; janubdan - kurdlar, eronliklar; Uzoq sharqdan esa koreyslar.

Ittifoqning parchalanishi bilan majburiy migrantlar paydo bo'ldi. Hozirgi vaqtga ularga quyidagilar kiradi:

qochoqlar;

vaqtinchalik qochoqxona berilgan shaxslar;

majburiy ko'chib ketganlar; ichki ko'chirilgan shaxslar.

«Qochoq» maqomini muayyan bir mamlakat fuqarosi bo'lmagan, ma'lum bir alomatlar bo'yicha: irqi, dini, millati, ma'lum bir ijtimoiy guruhga mansubligi, siyosiy qarashlari bo'yicha ta'qib qilinish qurboni bo'lishdan qo'rqayotgan va o'z fuqaroligi bo'lgan davlatning himoyasidan foydalana olmaydigan yoki foydalanishni xohlamaydigan kishilar oladilar. Bular qatoriga ma'lum bir fuqaroligi bo'lmagan, o'zining avvalgi yashash joyi davlatiga bora olmaydigan yoki borishni istamaydigan shaxslarni ham kiritish mumkin. Tinchlikka, insoniylikka nisbatan jinoyat sodir qilgan yoki boshqa og'ir qasddan jinoyat sodir qilgan shaxslar qochoq sifatida tan olinmaydilar.

Vaqtinchalik qochoqxona olgan shaxslar qatoriga ularni qochoq deb tan olinishi uchun asoslari bo'lgan, lekin mamlakat hududida vaqtinchalik qolish imkonini berish uchun iltimosnoma arizasi bilan cheklangan xorijiy fuqarolar va fuqaroligi yo'q shaxslarni kiritish mumkin. Ular qochoqlar deb tan olinishi uchun asosga ega bo'lmasliklari ham mumkin, lekin insoniylik yuzasidan mamlakatdan tashqariga deportatsiya qilinmaydi.

Sobiq ittifoq tarkibiga kirgan respublika hududida muqaddam yashagan, fuqaroligi bo'lgan, mamlakatda qochoq maqomini olgan, keyinchalik fuqaroligini olishi bilan avvalgi maqomini yo'qotgan shaxs majburiy ko'chuvchi sifatida tan olinishi mumkin. Lekin, bunda shunday holatlar e'tiborga olinishi kerakki, ularni

qochoq maqomi amaldagi davrida mamlakat hududida joylashishiga xalaqit beradigan holatlar e'tiborga olinishi zarur.

Majburiy ko'chuvchi sifatida xohlagan mamlakat fuqarosi ham tan olinishi mumkin, u mamlakatning biror bir sub'yektidagi yashash joyini almashtirishga majbur bo'lgan va boshqa sub'yektga ko'chib o'tgan yoki xorijiy davlat hududidagi yashash joyini tashlab ketishga majbur bo'lgan va mamlakatiga kelgan shaxs bo'lishi mumkin. Ular qatoriga qonuniy asoslarga ko'ra O'zbekiston hududida doimiy yashovchi va uning chegaralari doirasida yashash joylarini o'zgartirgan xorijiy fuqarolar va fuqaroligi yo'q bo'lgan shaxslar ham kirishi mumkin. Tinchlikka, insoniylikka nisbatan jinoyat sodir qilgan yoki boshqa og'ir qasddan jinoyat qilgan shaxslar majburiy ko'chuvchi sifatida tan olinmaydi.

Ichki ko'chirilgan shaxslar - mamlakat hududida doimiy yashovchi, millatlararo janjallar natijasida doimiy yashash joylarini tashlab ketgan, lekin majburiy ko'chuvchi maqomiga ega bo'lmagan fuqarolardir.

Agar gap tashqi migratsiya haqida ketadigan bo'lsa, uning yana bir ko'rinishi - noqonuniy (yashirin) migratsiyani ham ajratib ko'rsatish mumkin. Bu holat noqonuniy bo'lib, qonunni buzish bilan bog'liq. Bunday migratsiyaning sub'yektlari - nazorat qilinmaydigan shaxslar va noqonuniy migrantlar hisoblanadi.

Shuningdek, noqonuniy migrantlarga mamlakatga noqonuniy kirib kelayotgan xorijlik fuqarolarva fuqaroligi bo'lmagan shaxslar; maqsadlari ma'lum qilingan istaklariga muvofiq bo'lmagan shaxslar ham kiradi. Bunda noqonuniy migrantlar - bu qonuniy va noqonuniy asoslarda, keyinchalik noqonuniy holatga o'tayotgan va noqonuniy ishga joylashayotgan, boshqa mamlakatga ish topish maqsadida kirib kelayotgan shaxslar (turist sifatida va h.k. sabablarga ko'ra xususiy chaqirilayotgan shaxslar) ham kiradi.

Mehnat migratsiyasi - bu mehnat faoliyatini amalga oshirish maqsadida doimiy yashayotgan odamlarning bir hududdan ikkinchi hududga (mamlakatga) qonuniy asoslarda ixtiyoriy ravishda ko'chib o'tishidir. Tashqi mehnat migratsiyasining sub'yektlari bo'lib fuqaroligi bo'lmagan davlatda mehnat faoliyatini amalga oshirmoqchi bo'lgan va amalga oshirayotgan shaxslar

hisoblanadi. Tashqi mehnat migratsiyasi xorijlik ishchilarni ishga jalb qilish va o'z fuqarolarini boshqa mamlakatlarga jo'natish bilan bog'liqdir. Xalqaro mehnat tashkilotining baholariga ko'ra, har yili ish qidirib 20 mln.ga yaqin qonuniy migrantlar dunyo bo'yicha ko'chib yuradi va ushbu jarayon 100 dan ortiq mamlakatni qamrab oladi.

Mehnat migratsiyasi aholining yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga ko'nikishining shakli sifatida, ba'zan aholining ayrim qismining farovonligini oshirishning yagona imkoniyati sifatida yuzaga chiqadi. Unga turli kasb, ijtimoiy maqom, jins, yosh va ta'lim darajasiga ega odamlar tortilgan.

Migratsiya shakllari. Migratsiya amalga oshirilish shakllari bo'yicha ijtimoiy-tashkillashtirilgan (davlat yoki ijtimoiy organlar ishtirokida va ularning iqtisodiy ko'magi yordamida amalga oshiriladigan) va ijtimoiy tashkillashtirilmagan (individual, ya'ni tashkilotlarning tashkiliy va moddiy yordamisiz migrantlar o'zlarining mablag'lari va kuchlari hisobiga amalga oshirilgan) shakllarga bo'linadi. Migratsiya sabablari. Migratsiyani sabablar bo'yicha tasniflash muhim ahamiyat kasb etadi. Ulardan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- ijtimoiy va iqtisodiy, ularni ko'pincha ajratish qiyin bo'ladi (bo'sh qishloq xo'jalik yerlari va ish qidirish bilan bog'liq ko'chishlar; yuqoriroq daromadlarni qidirish bilan; turmush tarzini o'zgartirish maqsadida qishloqdan shaharga ko'chib o'tish va aksincha; yanada yuqoriroq ijtimoiy maqomga ega bo'lish va h.k.larga ko'ra ko'chishlar);
- siyosiy - siyosiy ta'qiblardan, irqiy va diniy siquvlardan qochish, siyosiy sharoitlar yoki davlat chegaralarining o'zgarishi bilan bog'liq repatriatsiya (qochoqlar va ko'chirma bo'lganlarning o'z vataniga qaytishi);
- harbiy - evakuatsiya, reevakuatsiya va deportatsiya;
- etnik (milliy);
- demografik (oilalami birlashtirish, nikoh migratsiyasi);
- tabiiy sharoitlar (iqlim);
- ekologik sharoitlar - atrof-muhitning ifloslanishi, ekologik halokatlar natijasida aholi ko'chib ketishga majbur bo'ladi.

Migratsiya bosqichlari. Migratsiya jarayoni uch bosqichga bo'linadi.

Birinchi bosqich — ko'chish to'g'risida qaror qabul qilish.

Ikkinchi bosqich — bevosita hududiy ko'chish. U davlat, turli jamoat tashkilotlari yordamida yoki mustaqil amalga oshirilishi mumkin.

Uchinchi bosqich — migrantlarning yangi yashash, ishjoyiga va mos ravishda ularning samarali hayot va mehnat faoliyatiga ko'nikishi. Bu bo'yicha barcha migrantlarni sprinter va stayer migrantlarga ajratish mumkin (bu yerda gap noodatiy va og'ir iqlimiy sharoitlari bolgan hududlarga ko'chish haqida ketmoqda). Sprinter-migrantning yangi joydagi mehnati faqat birinchi 2-3 oyliklarda samarali bo'ladi va ularning keyingi ko'nikishi qiyin- chiiiklar tug'diradi. Stayer-migrantlarda esa mehnatning samara- dorligi me'yorlashadi, birnecha oylar mobaynida oshib boradi va ko'nikish jarayoni borgan sari engillashib hamda tezlasha boradi. Migrantlarni aynan shu turkumidan hududning doimiy aholisi shakllanishi va mehnat migratsiyasining samaradorligi sezilarli darajada oshishi mumkin.

Aholi mehanik harakatini hisobga olish usullari

Aholi migratsiyasini hisobga olish nihoyatda murakkab masalalar qatoriga kiradi. Migratsiya haqidagi ma'lumotlar manbaiga asoslanib, uni hisobga olish usullarini ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh migratsiyani hisobga olish usullarining bevosita usullariga asoslanib, ularning asosida migratsion jarayonlarni joriy ro'yxatga olish. Bu yerda migrantlarni ketish va kelish joyidagi har bir alohida harakatlanish vaziyatlarini bevosita ro'yxatga olish nazarda tutilmoqda. Lekin, ushbu ma'lumotlar aholini tabiiy harakatlanishi dalolatnomalarini ro'yxatga olishga nisbatan reprezentativligi ancha past. Shuning uchun keluvchilar va ketuvchilar o'rtasidagi farq sifatidagi migratsiyaning saldosi aniqlash har doim ham ishonchli bo'lavermaydi.

Bunday holatda migratsiyani hisobga olishning bilvosita usullari qo'llaniladi, ular hisob-kitob xususiyatiga ega va aholini ro'yxatdan o'tkazish hamda tanlama tadqiqotlarga asoslanadi. Masalan, har bir bolaning tug'ilgan joyidagi aholini ro'yxatdan o'tkazishda amalga oshirilgan ro'yxatga olishga asoslanadi. Tug'ilgan va

yashash joyi to'g'risidagi ma'lumotlarni solishtirib mahalliy bo'lmagan yashovchilarning son ko'rsatkichlarini aniqlash mumkin va u migratsiya saldosi bilvosita tavsiflab beradi.

Migratsiyaning miqdoriy tahlili uning o'lchamini aniqlashdan boshlanadi. Migratsiya o'lchamlari ikki nuqtai nazar bo'yicha ko'rib chiqilishi mumkin:

1. Har bir ochiq aholi uchun uni boshqa ochiq aholi bilan migratsion o'zaro aloqadorligini tavsiflab beruvchi ko'rsatkichlarni belgilab olish mumkin. Bu yerda hudud chegaralaridan tashqariga ketuvchilarning va chegaralar tashqarisidan kelayotganlarning umumiy nazarida tutiladi (tashqi migratsiyaga nisbatan aytilganda emigratsiya va immigratsiya haqida gap ketadi). Keluvchilar va ketuvchilar soni o'rtasidagi farq «sof migratsiya» deb yuritiladi (netto- migratsiya yoki migratsiya saldosi). Keluvchilar va ketuvchilar sonining yig'indisini «yalpi migratsiya» deyiladi (yoki brutto-migratsiya).

2. Har bir aholi uchun ushbu aholi harakatchanligining umumiy darajasini ko'rsatib beruvchi ko'rsatkichlarni aniqlash mumkin. Harakatchanlikning ushbu ko'rsatkichlari:

- yopiq (berk) aholi uchun harakatchanlik kelish va ketish miqdoriga to'g'ri keladi;
- ochiq aholi uchun harakatchanlik berilgan hudud chegarasi tashqarisidan kelish va ketishlarning barcha sonining yig'indisiga teng.

Migratsion jarayonlarni yanada to'liqroq tahlil qilish uchun ko'pincha uning oqimlarini differentsiatsiya qilish va ularni qiyosiy tahlil qilishga ehtiyoj tug'iladi.

Umumiy migratsiyani differentsiatsiya qilish asosiga turli alomatlar qo'yilishi mumkin (masalan, migrantlarning demografik, ijtimoiy, kasbiy kabi turli tavsiflariga bog'liq ravishdagi alomatlar). Turli yosh guruhlaridagi ayollar va erkaklarning, shahar va qishloq aholisining migratsiyasini ko'rib chiqish mumkin.

Yuqorida sanab o'tilgan ko'rsatkichlar mutlaq kattaliklarni aks ettiradi. Lekin, ular jarayonning jadalligini aks ettirmaydi. Shuning uchun nisbiy kattaliklarni migratsiyaning jadallik ko'rsatkichlarini hisoblab chiqish lozim bo'ladi.

Migratsiyaning jadallik koeffitsienti migratsiya o'lchamining ko'rilayotgan hudud aholisining umumiy miqdoriga nisbati sifatida hisoblab chiqiladi. Aholining tabiiy harakati koeffitsienti singari u har ming kishiga (promille) nisbatan hisoblanadi.

Shunday qilib, aholining migratsiya jarayonlarini hisobga olishda bevosita va bilvosita usullardan, migratsion jarayonlarni to'liqroq tahlil qilish maqsadida esa migratsiyaning jadallik koeffitsientidan foydalaniladi.

Mehnat migratsiyasi. Mehnat migratsiyasi deganda, odatda mehnatga qobiliyatli aholining ishlab chiqarishni rivojlantirish va joylashtirishdagi o'zgarishlar bilan bog'liq makoniy ko'chib yurishi tushuniladi.

Halqaro Mehnat Tashkilotining tasnifi bo'yicha mehnat migratsiyasi quyidagi turlarga ajratiladi:


- **shartnoma asosida ishlovchilar.** Bu holda migrantlarni qabul qiluvchi davlat tomonidan ularning mazkur mamlakatda bo'lish muddatlari aniq belgilab qo'yiladi. Migratsiyaning mazkur turi asosan ish kuchini mavsumiy (masalan, qishloq xo'jaligi, qurilish) ishlarga jalb qilish bilan bog'liqdir;
- **malakali kadrlar migratsiyasi.** Migratsiyaning bu turiga yuqori malakali mutaxassislar yoki ishchilarni imtiyozli tartibda (yuqori ish haqi, boshqa imtiyozlar hisobiga) ishga taklif qilinishi misol bo'la oladi;
- **noqonuniy migratsiya.** Bu noqonuniy ravishda boshqa mamlakatlarda mehnat faoliyati bilan shug'ullanishdir;
- **qochoqlar.** Migratsiyaning bu toifasiga hayoti xavf ostida qolishi oqibatida boshqa joylarga ko'chishga majbur bo'lganlar kiradi;
- **ko'chmanchilar.** Ular doimiy yashash uchun boshqa joyga ko'chib borganlardir.

Mehnat migratsiyasi hudud, ish kuchi malakasi, davomiyligi bo'yicha hamda qonun jihatidan tasniflanadi (1-rasm).

Hudud bo'yicha ichki va tashqi mehnat migratsiyasi bir-biridan farqlanadi. Ichki mehnat migratsiyasi bir mamlakat miqyosida, mintaqalar, tuman va shaharlar o'rtasida bo'ladi. «Tashqi mehnat migratsiyasi» deyilganda ish kuchining bir

davlatdan boshqa davlatga ko'chib o'tishi tushuniladi. U quyidagi xususiyatlarga ega:

- rivojlanayotgan mamlakatlardan rivojlangan mamlakatlarga mehnat migratsiyasi;



1-rasm. Mehnat migratsiyasi tasnifi.

- rivojlangan mamlakatlar o'rtasida mehnat migratsiyasi;
- rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida mehnat migratsiyasi.

Ish kuchlari malaka bo'yicha yuqori malakali hamda past malakali ish kuchlari migratsiyasiga bo'linadi.

Mehnat migratsiyasi davomiyligiga qarab:

- doimiy yoki uzoq muddatga mo'ljallangan (boshqa mamlakatga doimiy ko'chib ketish yoki qishloq joylaridan shaharga doimiy yashashga ko'chib ketish);
- vaqtinchalik (masalan, shartnoma asosida boshqa mamlakatga muayyan davrga ishlash uchun borish);
- mavsumiy (masalan, qishloq xo'jaligi ishlariga jalb etish);
- tebranuvchan (ish kuchining bir hududdan ikkinchisiga, masalan qishloq joylaridan shaharlarga muntazam qatnab ishlashi).

Mehnat migratsiyasi qonuniy, ya'ni mamlakatda amal qilayotgan qonunchilik, xalqaro huquq me'yorlari, davlatlararo huquqiy bitimlar asosida hamda noqonuniy bo'lishi mumkin.

Bugungi globalashuv sharoitida mehnat migratsiyasi ommaviv tus olgan. Masalan, Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati mamlakatlarida ekspertlar xulosalariga ko'ra, mehnat migrantlari ish bilan band bo'lgan aholining taxminan 4,0-5,0 foizini taslikil etadi. Shu bilan bir qatorda noqonuniy, ya'ni ro'yxatga olinmasdan mehnat faoliyatini olib borayotgan migrantlar ham ko'pchilikni tashkil etadi.

Tayanch so'zlar: Doimiy migratsiya, vaqtinchalik migratsiya, majburiy migratsiya, qochoq, ichki ko'chirilgan shaxslar, mehnat migratsiyasi, migratsiya shakllari, migratsiya bosqichlari, ko'chmanchilar

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Migratsiyaning qanday turlarini bilasiz?
2. Aholi migratsiyasining qanday shakllari mavjud?
3. Migratsiyaning sabablarini tushuntirib bering.
4. Migratsiyani hisobga olishning qanday usullarini bilasiz?
5. Aholi migratsiyasining ko'rinishlarini sanab bering.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Abduraxmanov Q.X., va boshqalar. Demografiya. Darslik. - T.: «Fan va texnologiya», 2014.-368 b.
2. Bo'rieva M.R., Tojjeva Z.N., Zokirov S.S. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. – T.: Tafakkur, 2011. – 159 b.

Qo'shimcha adabiyotlar

3. Abdurahnmonov Q.X., Abduramanov X.X. Demografiya. O'quv qollanma. - T.: Noshir nashriyoti. – 2011.
4. Bo'rieva M.R., Tojjeva Z.N. Aholi geografiyasi. Ma'ruzalar matni. – T., 2000.

5. Bo'rieva M.R., Egamova D.N. Dunyo aholisi: Rivojlanish jarayonlari (o'quv qo'llanma). – T.: Fan, 2008. – 156 b.
6. Bo'rieva M. R. O'zbekistonda oila demografiyasi. – T.,Universitet, 1997.-157 b.
7. Narodonaselenie. Ensiklopedicheskiy slovar. – M., 1994.
8. Ubaydullaeva R.A., Ata-Mirzaev O.B., Umarova N.O. O'zbekiston demografik jarayonlari va aholi bandligi (ilmiy-o'quv qo'llanma). – T., 2006.

Elektron manbalar:

1. <http://ziyo.net>